



TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY  
AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI

SCIENTIFIC-THEORETICAL JURNAL  
**SCIENTIFIC BULLETIN**  
OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**  
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА



**3/2025**

## KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA GEOGRAFIYA FANIDAN TALABALARING MUSTAQIL TA'LIMINI BAHOLASH MEZONLARI

**Abdimurotov Oybek Uralovich**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti kafedrasи mudiri, p.f.f.d. dotsent.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fani bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limini baholash masalalari tahlil qilingan. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida joriy etilgan kredit-modul tizimi talabalarga o'z vaqtida, samarali va mustaqil ravishda ta'lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Geografiya fani bo'yicha talabalarning mustaqil ta'limini baholashda foydalaniladigan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kreativ fikrlash va tahliliy yondashuv kabi baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, mustaqil ta'limni baholashda yuqori, o'rta va quyi darajadagi baholash mezonlari ko'rib chiqilgan va bu mezonlar orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalarini va o'qitish metodikasining samaradorligi aniqlanishi mumkinligi ta'kidlangan. Shuningdek, talabalarning geografiya fanidagi bilimlarini va ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchilarga yordam beradigan samarali baholash mezonlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** kredit-modul tizimi, talabalar o'quv faoliyati, mustaqil ta'lim, geografiya fani, o'quv jarayoni, amaliy ko'nikmalar, kartografik va statistik tahlil, ilmiy izlanishlar, baholash mezonlari, nazariy bilimlarni baholash, yuqori baholash, o'rta baholash, quyi baholash, ta'lim metodikasi, o'qitish samaradorligi.

### КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПО ГЕОГРАФИИ ПО КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы оценки самостоятельного обучения студентов по географии в условиях кредитно-

модульной системы. Внедренная в систему высшего образования Узбекистана кредитно-модульная система направлена на создание возможностей для студентов получать образование своевременно, эффективно и самостоятельно. Разработаны критерии оценки самостоятельного обучения студентов по географии, такие как теоретические знания, практические навыки, креативное мышление и аналитический подход. Также рассмотрены критерии оценки самостоятельного обучения, включая высокие, средние и низкие уровни, и подчеркнуто, что с помощью этих критериев можно определить профессиональную подготовленность студентов, их практические навыки и эффективность методики преподавания. Также изложены эффективные критерии оценки, которые помогают преподавателям в процессе развития знаний и навыков студентов по географии.

**Ключевые слова:** Кредитно-модульная система, учебная деятельность студентов, самостоятельное обучение, география, учебный процесс, практические навыки, картографический и статистический анализ, научные исследования, критерии оценки, оценка теоретических знаний, высокая оценка, средняя оценка, низкая оценка, методика преподавания, эффективность обучения.

## **CRITERIA FOR ASSESSING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING IN GEOGRAPHY UNDER THE CREDIT-MODULE SYSTEM.**

**Abstract.** This article analyzes the issues of assessing students' independent learning in the field of geography within the framework of the credit-modular system. The credit-modular system, implemented in the higher education system of Uzbekistan, aims to create opportunities for students to learn on time, efficiently, and independently. The assessment criteria for students' independent learning in geography, such as theoretical knowledge, practical skills, creative thinking, and analytical approach, have been developed. Additionally, the high, medium, and low levels of assessment for independent learning are discussed, emphasizing that these

criteria can be used to determine students' professional preparedness, practical skills, and the effectiveness of teaching methodology. Furthermore, effective assessment criteria that assist teachers in developing students' knowledge and skills in geography are presented.

**Keywords:** credit-modular system, students' academic activity, independent learning, geography, learning process, practical skills, cartographic and statistical analysis, scientific research, assessment criteria, theoretical knowledge assessment, high assessment, medium assessment, low assessment, teaching methodology, teaching effectiveness.

Bugungi kunda zamonaviy ta'lif tizimi, shu jumladan, O'zbekiston oliv ta'lif tizimi ham o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Xususan, so'nggi yillarda keng qo'llanilayotgan kredit-modul tizimi talabalarning o'quv faoliyatini boshqarish va baholashda muhim o'rinn egallamoqda. Ushbu tizimning asosiy vazifalaridan biri — talabalarga ta'lifni o'z vaqtida, samarali va mustaqil ravishda tashkil etishga imkon yaratishdir. Kredit-modul tizimi orqali o'quv jarayoni individualizatsiya qilinadi, bu esa talabalar uchun o'z bilimlarini mustaqil o'rganish va rivojlantirish imkoniyatini kengaytiradi. Geografiya fani esa o'zining keng qamrovli va amaliy yo'nalishlarga ega bo'lgan tabiiy fan bo'lganligi bois, talabalarning mustaqil ta'lifini samarali tashkil etishni va uni zamon talablari asosida baholashni talab qiladi. Bu tizim talabalarning bilimini nafaqat nazariy asosda, balki amaliy ko'nikmalarini, masalan, dala ishlarini bajarish, kartografik va statistik tahlil ishlari, ilmiy izlanishlar olib borish kabi ko'nikmalarni ham o'lchashni taqozo qiladi. Shu boisdan, kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fani bo'yicha talabalarning mustaqil ta'lifini qanday mezonlar asosida baholash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kredit-modul tizimi sharoitida o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha umumiy yondashuvlar bilan bog'liq izlanishlar B.Sh.Usmonov, R.A.Habibullayev, G.A.Nazarqulov kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan [1]. Mustaqil ta'lifni tashkil etish masalalari M.L.Boltayeva, S.B.Ibragimova, B.R.Muqimov,

M.Murodova, N.R.Saitkulova kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Aynan geografiyani o‘qitish metodikasi sohasida O.Mo‘minov, R.Qurban niyozov, O‘.Safarov, X.Nikadamboyev, F.Xamroyeva, F.Saydamatov, O.Abdimurotov, M.Qo‘ldasheva, X.Amanov, F.Rajabov, H.Shodiyev va D.Abdullayeva kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan [2]. Ushbu ilmiy ishlarda geografiya fanining o‘qitilishining metodikasi, talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etish yo‘llari va zamonaviy yondashuvlar haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning asosiy bosqichi bo‘lib, kredit-modul tizimi va mustaqil ta’lim haqida mavjud ilmiy adabiyotlar, nazariy manbalar va ilg‘or tajribalar tahlil qilindi. Bu bosqichda xorijiy va milliy olimlarning ishlariga tayanib, geografiya fani bo‘yicha o‘quv jarayonining mohiyati va unga ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi. Kredit-modul tizimi va mustaqil ta’limning nazariy va metodik asoslari, shuningdek, geografiya fani o‘qitilishining o‘ziga xos xususiyatlari va talabalarni baholash usullari aniqlandi. Talabalar, o‘qituvchilar va ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan boshqa shaxslar orasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Bu usul orqali talabalarning mustaqil ta’limga bo‘lgan munosabati, uning samaradorligi va kredit-modul tizimi sharoitida o‘rganish jarayonidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Bu jarayonda talabalar tomonidan bajarilgan ishlar, loyihalar, mustaqil ishlar va sinovlar asosida baholash usullari ishlab chiqildi. Geografiya fanidan mustaqil ta’limni baholashda ishlatalgan metodlarning samaradorligi solishtirildi va taqqoslandi.

Kredit-modul tizimi — bu ta’lim jarayonida talabalar uchun ma’lum bir bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashni o‘lchash va baholashga asoslangan tizimdir [3]. Bu tizimda ta’lim jarayoni o‘z ichiga kreditlar va modullarni oladi, bu esa talabalarga o‘z bilimini mustaqil ravishda oshirish imkoniyatini beradi. Kredit-modul tizimi o‘quv jarayonini boshqarishni soddalashtiradi va individual yondashuvni ta’minlaydi. Talabalar o‘zlari qiziqtirgan fanlarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, shu bilan birga ularning o‘z vaqtida mustaqil ishlashini ta’minalash uchun modullar bo‘yicha baholash amalga oshiriladi. Geografiya fani sharoitida, bu tizim talabalarni nafaqat

nazariy bilimlarni egallashga, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham undaydi.

Mustaqil ta’lim — bu talabaning o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘rganish va bilim olish faoliyatini anglatadi [4]. Bu jarayon o‘qituvchining bevosita rahbarligisiz amalga oshiriladi, ammo o‘qituvchining nazorati va yordamidan foydalanish mumkin. Bo’lajak geografiya o‘qituvchilari uchun mustaqil ta’limning o‘rni nihoyatda katta, chunki bu fan ko‘plab amaliy mashg‘ulotlar, dala ishlarini va ilmiy izlanishlarni o‘z ichiga oladi.

Geografiya fanidan talabalarning mustaqil ta’limni baholashda bir nechta usullar mavjud. Bular quyidagilarga asoslanadi:

1. Nazariy bilimlarni baholash: Talabalar o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini testlar, yozma ishlar yoki maxsus ishlar yordamida baholash mumkin. Bu usul talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan asosiy konseptual bilimlarni tekshiradi.

2. Amaliy ko‘nikmalarni baholash: Geografiya fani ko‘plab amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi, shuning uchun talabalar dala ishlarini o‘tkazish, xaritalar tuzish, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni egallashlar i zarur. Bu ko‘nikmalarni baholashda seminarlar, loyihamalar va amaliy mashg‘ulotlar asosida ishlash mumkin.

3. Kreativ fikrlash va tahliliy yondashuvni baholash: Talabalar yangi geografik vaziyatlar yoki muammolarni tahlil qilish va ularga yechim taklif qilishda o‘zlarini ko‘rsatishlari kerak. Bunday yondashuv talabalarning kreativ fikrlashini va masalalarga tahliliy yondashuvini rivojlantiradi.

Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanidan talabalarning mustaqil ta’limini baholashda ko‘plab mezonlar, jumladan, nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, mustaqil ta’lim va faoliyk baholanadi [5]. Har bir mezon talabalarning ta’lim jarayonida qanday qatnashayotganini va o‘z bilimlarini qanday qo’llayotganini aniq o‘lchashga imkon yaratadi va talabalarning fanga oid bilimlarining rivojlanganlik darajalarini aniqlashga xizmat qiladi (1-jadval).

### Talabalarda fanga oid bilimlarning rivojlanganligi darajalari

Darajalar	Fanga oid bilimlarning rivojlanganligi darajasini ifodalovchi xususiyatlar .
Quyi	<p>Fanga oid kompetensiyalarni shakllangan, ammo amalda o‘qituvchining yordamisiz qo‘llay olmaydi. Talaba geografik nomlar, ularning to‘g‘ri talaffuzi, obyektlarning xaritada joylashishini yaxshi bilishini namoyish etadi, geografik bilimlarga ega, nazariy qoidalarni, tabiat jarayonlarini, hodisalarni konkretlashtirishda, obyektlarni tasvirlashda, ularni taqqoslashda toponimlardan foydalanadi. Geografik obyektlarni devor xaritasida ko‘rsatish usulini egallaganligini ko‘rsatadi, atlas va kontur xaritalar bilan ishlashni tashkil qiladi. O‘qituvchi metodik o‘z ishida foydalanadigan geografik nomenklatura bilimlarini yodlash, takrorlash, nazorat qilish bo‘yicha talabalar faoliyatini tashkil etishning faqat usullarini qo‘llaydi.</p>
O‘rta	<p>Fanga oid kompetensiyalari shakllangan, amalda ularni erkin qo‘llaydi. Kasbiy bilim va ko‘nikmalarni mukammal egallangan, amalda ularni qo‘llashda xatolarga yo‘l qo‘yadi. Talaba geografik nomlar, ularning to‘g‘ri talaffuzi, obyektlarning xaritadagi joylashuvi haqida mukammal bilimini namoyish etadi, geografik bilimlarga ega, nazariy pozitsiyalarni, jarayonlarni, hodisalarni konkretlashtirishda, obyektlarni tasvirlashda, ularni taqqoslashda ko‘pincha toponimlardan foydalanadi. Geografik obyektlarni devor xaritasida ko‘rsatish usulini egallaganligini ko‘rsatadi, atlas va</p>

	<p>kontur xaritalar bilan ishlashni tashkil qiladi. Shuningdek, geografik nomenklatura bo‘yicha bilimlarni yodlash, takrorlash, nazorat qilish bo‘yicha o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishning turli usullariga ega ekanligini hamda o‘quv qurollari (ish kitoblari, darslik, ko‘rgazmali, audiovizual va elektron vositalar) bo‘yicha malakali bilimga ega ekanligini ko‘rsatadi, ammo ba’zi xatorlarga yo‘l qo‘yadi.</p>
Yuqori	<p>Fanga oid kompetensiyalari shakllangan, amalda ularni erkin qo‘llaydi. Kasbiy bilim va ko‘nikmalarni mukammal egallangan, amalda ularni qo‘llashda xatolarga yo‘l qo‘ymaydi. Topshiriqlarni belgilangan vaqtida bajaradi. Talaba geografik nomlar, ularning to‘g‘ri talaffuzi, obyektlarning xaritadagi joylashuvi haqida mukammal bilimini namoyish etadi, geografik bilimlarga ega, nazariy pozitsiyalarni, jarayonlarni, hodisalarni konkretlashtirishda, obyektlarni tasvirlashda, ularni taqqoslashda ko‘pincha toponimlardan foydalanadi. Geografik obyektlarni devor xaritasida ko‘rsatish usulini egallaganligini ko‘rsatadi, atlas va kontur xaritalar bilan ishlashni tashkil qiladi. Shuningdek, geografik nomenklatura bo‘yicha bilimlarni yodlash, takrorlash, nazorat qilish bo‘yicha o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishning turli usullariga ega ekanligini hamda o‘quv qurollari (ish kitoblari, darslik, ko‘rgazmali, audiovizual va elektron vositalar) bo‘yicha malakali bilimga ega ekanligini ko‘rsatadi, barcha topshiriqlarni xatosiz bajaradi va savollarga to‘g‘rijavob beradi.</p>

Geografiya fanlari bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida talabalarning amaliy ko'nikmalarini baholash, ularning kasbiy tayyorgarligini va o'qitish metodikasining samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayonni baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

### 1. Yuqori baholash (A'lo daraja)

Agar talaba geografiya fanining turli sohalariga oid bilimlardan foydalanib, o'qituvchining yordamisiz amaliy geografik topshiriqni belgilangan muddatda sifatli va yuqori saviyada bajargan bo'lsa, uning ishi "yuqori" baholanadi. Bunda talaba quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

Mustaqil fikrlash: Talaba mavzuni to'liq tushunib, fanning turli sohalaridan o'z bilimlarini muvofiqlashtiradi va amaliy topshiriqlarni mustaqil ravishda hal qiladi.

Kreativlik va innovatsiya: O'quvchi o'z ishlari orqali yangi g'oyalar, metodikalar yoki yechimlar ishlab chiqadi.

Sifatli bajarish: Dars jarayonida o'z bilimini aniq, to'liq va ilmiy asoslangan tarzda namoyish etadi.

Tezlik va samaradorlik: Talaba o'z topshirig'ini belgilangan muddatda va yuqori sifatda bajaradi.

### 2. O'rta baholash (Yaxshi daraja)

Agar talaba o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari yordamida fanning biror sohasiga oid bilimlardan foydalanib, ishini sifatli va belgilangan muddatda bajargan bo'lsa, uning ishi "o'rta" baholanadi. Bu baholash mezoniga quyidagilar kiradi:

Yo'naltiruvchi yordam: Talaba o'qituvchining yo'naldiruvchi savollariga javob topib, mavzuni tushunishda yordam oladi va keyin mustaqil ravishda ishini davom ettiradi.

Tushunish va amaliyatga qo'llash: Talaba o'z bilimlarini mustaqil ta'limda to'g'ri va aniq ishlatadi, lekin ba'zi joylarda yordamga muhtoj bo'ladi.

Vaqtni boshqarish: Talaba topshiriqlarni belgilangan muddatda bajaradi, lekin ba'zan kutilgan natijalar yoki mukammallik darajasiga yetishish uchun qo'shimcha vaqt talab qilinadi.

O'rta darajadagi sifat: Talabaning ishlari yaxshi, lekin ba'zi qismlarda aniqlik yoki mukammallik yetishmaydi.

### 3. Quyi baholash (Qoniqarli daraja)

Agar talaba o'qituvchining yo'naldiruvchi savollari va maslahatlari yordamida ishini belgilangan muddatdan bir oz kechikib, sifatsizroq bajargan bo'lsa, uning ishi "quyi" baholanadi. Bunda quyidagi holatlar yuzaga keladi:

Tushunmovchilik va yordamga ehtiyoj: Talaba fanning asosiy tushunchalarini tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi va ko'proq yordamga muhtoj.

Muddatdan kechikish: Talaba topshiriqni belgilangan muddatda bajarmay, vaqt ni boshqarish bo'yicha muammolarga duch keladi.

Sifatning pastligi: Ishlar bajarilgan bo'lsada, ba'zi ma'lumotlar noaniq yoki noto'g'ri bo'lishi mumkin, yoki mavzu to'liq va sifatli yoritilmagan.

Rejalashtirishdagi kamchiliklar: Talaba o'z topshiriqlarini bajarishda ilgari surilgan metodlarni to'g'ri amalga oshirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi va o'qituvchidan doimiy maslahatlar oladi.

Geografiya fanlarida mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida, talabalarning kasbiy tayyorgarligi va o'qitish metodikasining samaradorligini aniqlashda yuqoridagi baholash mezonlari muhim ahamiyatga ega [6]. Mustaqil ishslash, o'qituvchining yo'naltiruvchi savollaridan foydalanish, va o'z bilimlarini amaliy mashhg'ulotlarda qo'llash talabalarning geografiya fanidagi ko'nikmalarini rivojlantirishda asosiy omil bo'ladi. Bu mezonlar yordamida o'qituvchilar talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlab, o'quv jarayonini yanada samarali tashkil qilishlari mumkin.

Geografiya fanlarida mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalarni baholashda yuqori, o'rta va past mezonlar asosida baholash tizimi talabalarning kasbiy ko'nikmalarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu tizim, talabalarning bilimlarini va

amaliy ko‘nikmalarini oshirish, darslarni yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi.

O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda talabalarning geografiya fanidan mustaqil ta’limni o’zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida yuqoridagi baholash mezonlaridan foydalanilganida tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirishlarini Styudent-Fisherning matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik. Tajriba-sinovda jami 294 nafar talabalar qatnashib, tajriba guruhida 145 nafarni va nazorat guruhida 149 nafarni tashkil etdi (2-jadval).


Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to’plam berilgan bo’lsin. Biri tajriba guruhidagi talabalar bilimining o‘rtacha ballari, ikkinchisi esa nazorat guruhidagi talabalar bilimining o‘rtacha ballari. Baholar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o’rinlidir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo’lib, ular bajariladi.

2-jadval


**Tajriba boshida va yakunida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining mustaqil ta’limni baholash mezonlari asosida tajriba va nazorat guruhlarida qatnashgan respondentlarning samaradorlik darajasi ko’rsatkichlari.**

Muddati	Guruhi	Talabalar soni	O‘zlashtirish darajalari sonda va foizda		
			Yuqori	O‘rta	Quyi
Tajriba boshida	Tajriba guruhida	145	25 17,24%	60 41,38%	60 41,38%
	Nazorat guruhida	149	30 20,13%	76 51,01%	43 28,86%
Tajriba yakunida	Tajriba guruhida	140	32 22,86%	91 65%	17 12,14%
	Nazorat guruhida	146	26 17,81%	55 37,67%	65 44,52%

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko‘rinishni oladi (1- va 2-rasm).



1-rasm. Tajriba boshidagi ko‘rsatkichlar



2-rasm. Tajriba yakunidagi ko‘rsatkichlar

Olingan natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o’rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya, variatsiya ko’rsatgichlari, Styudentning tanlanma mezoni,

Styudent- Fisher mezoni asosida erkinlik darajasi va ishonchli chetlanishlari topildi. Bular quyidagi jadvalda aks etgan:

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	$D_m$	$D_n$	$\tau_m$	$\tau_n$	$\delta_m$	$\delta_n$	$\Delta m$	$\Delta n$	
3,76	4,02	Tajriba boshida samaradorlikka erishilmagan								
4,21	3,73	0,34	0,556	0,58	0,74	0,14	0,2	0,047	0,076	

Olingen natijalardan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat sinfidagiga nisbatan 9,4% ga oshganligini anglatadi.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum  $\bar{X} = 4,121$ ;  $\bar{Y} = 3,73$ ;  $\Delta m = 0,047$ ;  $\Delta n = 0,076$ ;

$$K_{o'sb} = \frac{(\bar{X} - \Delta_m)}{(\bar{Y} + \Delta_n)} = \frac{4,21 - 0,047}{3,73 + 0,076} = \frac{4,163}{3,806} = 1,094 > 1$$

Bu erda:  $K_{o'sb}$ - tajriba – sinov ishlarining o'qitish samaradorligini baholsh mezoni.

$$K_{bdb} = (\bar{X} - \Delta_m) - (\bar{Y} - \Delta_n) = (4,21 - 0,047) - (3,73 - 0,076) = 0,509 > 0$$

Bu erda:  $K_{bdb}$ - tajriba – sinov ishlarining bilish darajasini baholsh mezoni.

Olingen natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni bordan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Demak, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining mustaqil ta'limini baholash mezonlarini amalga oshirishda tajriba va nazorat guruhlarida qatnashgan respondentlarning samaradorlik bo'yicha o'tkazilgan tajriba – sinov ishlari muvofaqiyatli bo'ldi.

Kredit-modul tizimi sharoitida geografiya fanidan talabalarining mustaqil ta’limini baholash jarayoni o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bu tizim talabalarni mustaqil ishlashga, o‘z bilimlarini o‘z vaqtida va tizimli ravishda egallashga undaydi. Mustaqil ta’limni baholashning aniq va samarali tizimi, o‘z navbatida, talabalar bilimining sifatini oshirishga, o‘quv jarayonini innovatsion yondashuvlar bilan boyitadi. Shu bilan birga, geografiya fanidan talabalarining mustaqil ta’limini samarali baholash uchun baholash mezonlari, metodikalar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur. Bu esa, albatta, talabalar va o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kredit-modul tizimi va mustaqil ta’limni baholashni samarali amalga oshirish uchun bir qator tavsiyalarni keltirish mumkin:

1. Baholash mezonlarini aniq belgilash: Talabalarga o‘qish jarayonida qanday mezonlarga asoslanib baholanishi aniq tushuntirilishi kerak. Bu, o‘z navbatida, ularni ta’lim jarayoniga yanada faolroq jalb etadi.
2. Innovatsion metodlarni qo‘llash: Geografiya fani bo‘yicha interaktiv o‘quv materiallari, simulyatsiyalar va elektron resurslar yordamida talabalar mustaqil ta’limda yanada samarali natijalarga erishishlari mumkin.
3. O‘zaro baholash va fikr almashish: Talabalar o‘zaro baholash orqali bir-birining ishlarini tahlil qilish va fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bu, o‘z navbatida, mustaqil o‘rganish jarayonini yanada chuqurlashtiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Abdimurotov, O. U. (2023). Kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etish shakllari.“. Pedagogika” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023. 4-son. 289-293-b.
2. Abdimurotov O.U. Geografiya darslarida mustaqil ta’limni tashkil etishda modulli ta’lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi. “Муғаллим ҳәм үзликсиз билимленидириў” илимий-методикалық журнал. 2023. 6/4-сан. 72-81 b.

3. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni samarali tashkil etish vositalari. FAN va JAMIYAT ilmiy-uslubiy jurnal. №5/2-son. 2024. 56-59-b.
4. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'limni tashkil etish dolzARB pedagogik muammo sifatida // "Ta'lim, fan va innovatsiya" jurnali 2023. 6-son. 106-110 b.
5. Abdimurotov O.U. Geografiya fanidan mustaqil ta'limni axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish mexanizmlari // "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024. 12-son. 100-107 b.
6. Rajabov F.T., Abdimurotov O.U. Geografiya ta'limida mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha xalqaro tajribalar // "Geografiya - nazariyadan amaliyotga" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Qo'qon. 2024-yil 25-noyabr. 393-398-b.4.
7. Rajabov F.T. Zamonaviy yondashuvlar vositasida bo'lajak geografiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori (DSc). Dissertatsiya. – T.: 2024. – 218 b.
8. Rasulov I.M. Talabalarning loyihalash madaniyatini kompyuter texnologiyalari vositasida rivojlantirish. Dissertatsiya. – T.: 2018. – 150 b. (Dis-648/2018)
9. Ibragimova S.B. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning xorijiy tilni o'zlashtirish ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi (kredit-modul tizimidagi iqtisodiyot yo'nalishi talabalari misolida) Dissertatsiya. – T.: 2024. – 148 b.
10. Murodova M. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023